

<i>Tashkilot nomi:</i>	Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi
<i>Tarkibiy bo'linma nomi:</i>	Hujjatlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi
<i>Tanlov bosqichi:</i>	Suhbat
<i>Savol yo'nalishi:</i>	Lavozim kasb faoliyatiga bog'liq 3 blok (60 ta savol)

1. Sud-tergov amaliyotida hujjatlarining qanday turlari mavjud?
2. Dastxat deb nimaga aytiladi?
3. Dastxatning sub'ektiv omillariga nimalar kiradi?
4. Dastxatning ob'ektiv omillariga nimalar kiradi?
5. Kriminalistik xatshunoslik nima?
6. Dastxatning identifikatsiyaviy belgilari qanday aniqlanadi?
7. Sud xatshunoslik ekspertizasida matn deb nimaga aytiladi?
8. Sud xatshunosligi ekspertizasida imzo deb nimaga aytiladi?
9. Kam axborotli, kam informatik belgili materillarning tadqiqot metodi qanday holatda qo'llanadi?
10. Dastxatning tabiiy o'zgarishi nima? Va tabiiy o'zgarishga sabab bo'luvchi omillarni sanab bering?
11. Qo'lyozma yozuv va muhr izlari kesishgan qismida qo'lyozma yozuv ustidan yozilganda, ularning qanday belgilari aniqlanadi?
12. Bosma matn va muhr izlari kesishgan qismida bosma matn muxr izi ustidan bosilganda, ularning qanday belgilari aniqlanadi?
13. Bosma matn va imzo kesishgan qismida, imzo bosma matn ustidan qo'yilganda, ularning qanday belgilari aniqlanadi?
14. Imzolarning texnik qalbakilashtirish usuliga tegishli usullarni aytib bering?
15. Imzoni texnik qalbakilashtirishning "Yorug'likda" nusxa ko'chirilganda qanday belgilar aniqlanadi?
16. Imzoni texnik qalbakilashtirishning nusxa ko'chiruvchi qog'oz yordamida imzoni nusxasini ko'chirish keyin ustidan pasta yoki siyoh yurgizishda qanday belgilar aniqlanadi?
17. Imzoni texnik qalbakilashtirishning rangli purkalovchi printer yordamida hosil qilishda qanday belgilar aniqlanadi?
18. Imzoni texnik qalbakilashtirishda asl imzoni ustidan bosib konturini hosil qilish keyin ustidan pasta yoki siyoh yurgizishda qanday belgilar aniqlanadi?
19. Lazerli printer yordamida bajarilgan matnlarda ularning qanday belgilari aniqlanadi?
20. Sud lingvistika ekspertizasi nimalarni tadqiqot etadi?
21. Sud filologiya (muallifshunoslik) ekspertizasining maqsadi nimadan iborat?
22. Nutq birliklariga nimalar kiradi?

23. Yozma nutqning xususiy belgilarini tahlil qilishda orfografik bilim darajasi nimaga asoslanib baholanadi?
24. Sud lingvistika ekspertizasi jarayonida matndagi anaforik aloqalar nimani anglatadi?
25. Sud lingvistika ekspertizasida umumiy va xususiy belgilarga ajratishda qaysi darajalarga tayaniladi?
26. Tilshunoslikda leksikologiya nimani o'rganadi?
27. Leksik polisemiya nima?
28. Tilshunoslikda neologizmlar deganda nima tushuniladi?
29. Nutqning qanday uslublari bor?
30. O'zbek tilida so'zlar o'zaro qanday usullar orqali bog'lanadi?
31. Tilshunoslikda leksikologiyaning predmeti nimadan iborat?
32. Tilshunoslikda metateza hodisasi nima?
33. Tilning eng kichik birligi bo'lgan gapning tuzilishi jihatidan turlari qaysilar?
34. Tilning eng kichik birligi bo'lgan gapning ikkinchi darajali bo'laklari qaysilar?
35. O'zbek tilida semasiologiyada nimalar o'rganiladi?
36. Umumiste'moldagi so'zlar deb nimaga aytiladi?
37. Atov gaplar deb qanday gaplarga aytiladi?
38. Mustaqil so'z turkumlari qaysilar?
39. Tergov eksperimentining maqsadlarini aytib bering
40. Tergovda tintuv va olib qo'yishni mazmun va moxiyatini tushuntirib bering
41. Tergov qilish uslubiyoti tushunchasi?
42. Jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotlari nechta bosqichdan iborat?
43. Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi nima?
44. Tergovchi va tezkor-qidiruv xodimlarining o'zaro hamkorligi rejasi nimalarni o'z ichiga olishi kerak?
45. Jabrlanuvchining murdasini ko'zdan kechirishda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar bo'yicha ma'lumot bering.
46. Bedarak yo'qolgan shaxsning murdasi topilmagan hollarda tergovning dastlabki bosqichida qanday masalalarni hal etish lozim?
47. Talon taroj qilish jinoyatlarini kriminalistik tavsifiga kiradigan elementlarni ayting.
48. O'g'irlik jinoyat ishlari bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar haqida ma'lumot bering.
49. Firibgarlarni shartli ravishda necha guruhga bo'lsa bo'ladi?
50. Kriminalistik fotografiya metodlari haqida ma'lumot bering.
51. Tergovda ko'zdan kechirish turlarini aytib bering
52. Xodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tushunchasini ayting
53. Xodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish vazifalari
54. Tergov eksperimentini tushinchasini aytib bering?
55. Kriminalistik taktika tushunchasi
56. Kriminalistik taktikaning tizimi?
57. Hodisa joyini ko'zdan kechirish bayonnomasi nechta qismdan iborat?
58. Jinoyat ishlari bo'yicha ekspertizaning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering?

59. Davlat mulkini talon-taroj qilish jinoyatlari yuzasidan so'roq qilishni tarkibiy qismlarini tushuntirib bering?

60. Yo'l-transport hodisasi yuzasidan murdani ko'zdan kechirishni umumiy qoidalarini tushuntirib bering?